



“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo‘mitasi raisi

B.A.Begalov

“27” *sentabr* 2021 yil

**Statistika ishlarini tashkil etish
va metodologiya boshqarmasi to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasining (keyingi o‘rinlarda Boshqarma deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Boshqarma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3165-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda Davlat statistika qo‘mitasi deb ataladi) markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

3. Boshqarma o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida”gi Nizomga, mazkur Nizomga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Boshqarma statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya masalalari bo‘yicha faoliyatini Davlat statistika qo‘mitasi markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari, tumanlar va shaharlar statistika bo‘limlari (keyingi o‘rinlarda hududiy statistika organlari deb ataladi) bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Boshqarma o‘z faoliyatini Davlat statistika qo‘mitasi raisi rahbarligida amalga oshiradi. Boshqarma o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha Davlat statistika qo‘mitasi raisiga bo‘ysunadi.

2-bob. Boshqarmaning vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar Boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi: